Аннотация: В данной статье рассмотрен анализ деятельности промышленных предприятий на рынке акций: проблемы и решения, формирование финансирования деятельности и проектов предприятий на основе корпоративных ценных бумаг, изучен опыт зарубежных стран. В частности, в статье освещается текущее состояние государственных активов, функционирование промышленных предприятий с рынка акций за последние годы, развитие рынка капитала, ряд реформ на рынке ценных бумаг. Общее количество акционеров по отраслям оценивается по текущей доле и заключенным сделкам. В настоящее время освещается вопрос о выходе промышленных предприятий на фондовый рынок и их регулярном пребывании на нем, а также о его проблемах. Финансовая грамотность физических и юридических лиц анализ их деятельности на республиканских фондовых биржах и расходов доходов населения был рассмотрен и подробно освещен на примере Республики Узбекистан и США.

Ключевые слова: активы, монополия, рынок капитала, акции, фондовые биржи, корпоративные облигации, отрасли, концентрация, ликвидность, маркет-мейкер, недвижимость, инвестиции.

O'zbekiston Respublikasi qimmatli qog'ozlar bozori so'nggi yillarda juda ko'p o'zgarishlar va ma'muriy islohotlar obyekti bo'lgan. Dastlabki o'zgarishlar mamlakat prezidentligiga Shavkat Mirziyoyevning saylanishi ortidan yuz bergan. Muqaddam Davlat Raqobat qo'mitasi deb atalgan O'zbekiston Respublikasi xususiy-lashtirilgan korxonalarga ko'maklashish va raqobatni rivojlantirish davlat qo'mitasi qimmatli qog'ozlar bozorini tartibga soluvchi asosiy organ sifatida 2017-yilda O'zbekiston Respublikasining xususiy-lashtirish, monopoli-yadan chiqarish va raqobatni rivojlantirish davlat qo'mitasi negizida qayta tashkil etilgan¹. Biroq bu islohot ham


¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 18-apreldagi PF-5016-son "O'zbekiston Respublikasi Xususiy-lashtirilgan korxo-nalarga ko'maklashish va raqobatni rivojlantirish davlat qo'mitasini tashkil etish to'g'risida"gi Farmoni



ikki yildan so'ng takomillashtirilib², oldin mavjud bo'lgan bir qo'mitadan 3 ta tashkilot paydo bo'lgan – Davlat aktivlarini boshqarish agentligi, Monopoliyaga qarshi kurashish qo'mitasi va Kapital bozorini rivojlantirish agentligi tashkil etilib³, qimmatli qog'ozlar bo'yicha nazorat oxirgi keltirilgan agentlikka yuklatilgan.

2021-yilda Kapital bozorini rivojlantirish agentligi ham tugatilib, uning funksiyalari o'sha paytdagi Moliya vazirligining Kapital bozorini rivojlantirish departamentiga o'tkazilgan⁴. Oradan yana ikki yil o'tib, mamlakatda amalga oshirilgan ulkan ma'muriy islohotlar natijasida Iqtisodiyot va Moliya vazirliklari birlashishi ortidan qimmatli qog'ozlar bozorini nazorat qilish funksiyasi Istiqbolli loyihalarni boshqarish milliy agentligiga yuklatilgan. Qimmatli qog'ozlar bozori bir qancha ma'muriy islohotlar nishoni bo'lganiga qaramay, hanuzgacha kuchli rivojlanish dinamikasini qayd etayotgani yo'q. Shunday bo'lsada, qimmatli qog'ozlar bozorida yildan-yilga ijobiy o'zgarish tendensiyalari kuzatilayotgani "Toshkent" Respublika fond birjasining yillik hisobotlarida aks ettirilmoqda.


Xususan, 2023-yilda jami tuzilgan bitimlar soni umumiy qiymati 2 712,75 mlrd so'm bo'lgan 411 870 tani tashkil etgan. Shuningdek, "Toshkent" Respublika fond birjasida 2023-yilda 248 savdo kunlari ichida jami 138 ta instrumentlar – korporativ qimmatli qog'ozlar savdo qilingan. 2023-yilda tuzilgan bitimlar soni va hajmi o'tgan yillar ma'lumotlariga nisbatan mos ravishda quyidagicha oshdi:



1-rasm: Toshkent RFBda 2023-yilda tuzilgan bitimlar soni va hajmi⁵

2023-yilda Toshkent RFBda iqtisodiyotning 10 ta turli xil soha aksiyadorlik jamiyatlarining qimmatli qog'ozlari bilan birja savdolari amalga oshirilgan. Bir necha yillardan beri birinchi o'rinda banklar egallab kelayotgan bo'lsa, sanoat sektori emitentlarining qimmatli qog'ozlari savdosi ikkinchi o'rinda kelmoqda. Bank sektori emitentlarining qimmatli qog'ozlari bilan 229 898 ta bitim tuzildi, bu birja bitimlari umumiy sonining 55,82 foizini tashkil etdi. Sanoat tarmog'idagi 12 ta emitentlarning qimmatli qog'ozlari bilan 36 798 ta bitim tuzildi (birja bitimlari umumiy sonining 8,93 foizi).

Sohalar bo'yicha 2023-yilda tuzilgan bitimlar soni, dona



2-rasm: 2023-yilda Toshkent RFBda sohalar bo'yicha birja bitimlarining soni, dona⁶

- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 14-yanvardagi PF-5630-son "Davlat aktivlarini boshqarish, monopoliyaga qarshi kurashishni tartibga solish tizimini va kapital bozorini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni
- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 24-yanvardagi PQ-4127-son "O'zbekiston Respublikasi kapital bozorini rivojlantirish agentligi faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi qarori
- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 13-apreldagi PQ-5073-son "Kapital bozorini tartibga solish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori
- "Toshkent" RFB – 2023-yil bo'yicha Birjaviy tahlil.
- "Toshkent" RFB – 2023-yil bo'yicha Birjaviy tahlil.



Umuman olganda, sanoat sektorida quyidagi aksiyadorlik jamiyatlari aksiyasi 2023-yilgi birja savdolarida oldi-sotdi qilingan (1-jadval).

1-jadval: Toshkent RFB da sohalar bo'yicha birja bitimlarining soni va hajmi⁷


Soha	Bitimlar soni, dona	Qimmatli qog'ozlar soni, dona	Bitimlar hajmi, so'm
Lizing	639	19 638	13 900 260 607,15
Transport	2579	555 198	66 541 307 723,10
Agrosanoat	18521	151 092 393	597 738 164 823,87
Qurilish	20085	3 300 979	17 763 405 011,83
Aloqa	20816	6 068 444	37 007 935 894,14
Energetika	22697	6 819 617	119 454 704 388,32
Boshqalar	28018	160 586 651	702 691 105 893,96
Sug'urta	31819	15 709 897 105	77 230 034 987,01
Sanoat	36798	4 987 566	108 448 536 911,81
Banklar	229898	12 037 218 814	971 972 481 065,11

E'tiborlisi shundaki, fond bozorida banklar soni sanoat tarmog'i korxonalari sonidan uch marta ko'p bo'lib, 2023-yilda sanoat tarmog'ida jami 11 ta aksiyadorlik jamiyatlarining 15 ta turdagi aksiyalari bilan savdolar amalga oshirilgan (2-jadval).

2-jadval: Toshkent RFB da sohalar bo'yicha birja bitimlarining soni va hajmi⁸

Soha	Bitimlar soni, dona	Qimmatli qog'ozlar soni, dona	Bitimlar hajmi, so'm
Lizing	639	19 638	13 900 260 607,15
Transport	2579	555 198	66 541 307 723,10
Agrosanoat	18521	151 092 393	597 738 164 823,87
Qurilish	20085	3 300 979	17 763 405 011,83
Aloqa	20816	6 068 444	37 007 935 894,14
Energetika	22697	6 819 617	119 454 704 388,32
Boshqalar	28018	160 586 651	702 691 105 893,96
Sug'urta	31819	15 709 897 105	77 230 034 987,01
Sanoat	36798	4 987 566	108 448 536 911,81
Banklar	229898	12 037 218 814	971 972 481 065,11

Sanoat korxonalari hozirgi kunda fond bozoriga kirish va unda muntazam qolish bilan bog'liq bir qancha muammolarga duch kelmoqda (3-rasm).



- Bozor konsentratsiyasi
- Yirik hissdorlarning "hukmdorligi"
- Likvidlikning pastligi
- Aholining moliyaviy savodxonligi
- Instrumentlarning chegaralanganligi

3-rasm: Sanoat korxonalari fond bozorida duch kelayotgan muammolar⁹

Fond bozorining konsentratsiyasi bugungi kunda qolgan muammolarga sabab bo'layotgan eng asosiy muammo sifatida qaraladi. Bozorning konsentratsiyasi deganda – fond bozorida amalga oshiriladigan barcha

⁷ Yuqoridagi manbaga qarang.

⁸ Yuqoridagi manbaga qarang.

⁹ Ilmiy adabiyotlar tahlili asosida muallif tomonidan tayyorlandi.




savdolarning katta ulushi, shuningdek, bozordagi bir instrumentning dominant bo'lishi tushuniladi. Xususan, "Toshkent" respublika fond birjasidagi asosiy savdo instrumenti – aksiyalar bo'lib, bozordagi jami savdolarning deyarli 99 foizi aynan shu instrumentga to'g'ri keladi. 2023-yilda "Toshkent" respublika fond birjasida amalga oshirilgan bitimlar soni 411 870 tani tashkil etgan bo'lsa, shundan 411 393 tasi yoki 99,8 foizi aynan aksiyalar bilan amalga oshirilgan.

Bundan tashqari O'zbekiston fond bozorida amalga oshiriladigan savdolarning katta qismi Toshkent shahri va Toshkent viloyatlari to'g'ri kelib (3-jadval), bu bilan boshqa hududlarda aholi moliyaviy savdaxonligining va instrumentlar likvidligining pastligi hamda minoritar aksiyadorlarning bozordagi ulushi sezilarli kamligi kabi muammolarni paydo qiladi.

3-jadval: Sanoat korxonalari fond bozorida duch kelayotgan muammolar¹⁰

Hududlar	Emitentlar soni	Bitimlar soni	QQ soni	Bitimlar hajmi, so'm
Andijon	4	40 972	108 384 315 30	877 374 039,18
Buxoro	9	14 940	838 905	1 933 813 912,51
Toshkent	47	291 746	27 808 086 807	2 022 785 489 679,02
Jizzax	1	2 211	71 198	237 618 486,67
Qashqadaryo	8	3 524	2 934 218	11 773 115 986,89
Navoiy	3	9 254	1 536 400	4 817 281 929,49
Namangan	4	366	62 104	530 787 517,75
Qoraqalpog'iston Respublikasi	5	6	719 815	6 913 725 408,00
Samarqand	2	636	77 707	1 079 480 009,88
Toshkent viloyati	16	30 851	10 529 244	50 916 654 297,72
Farg'ona	10	16 843	145 160 234	571 644 391 224,39
Xorazm	3	521	2 145 458	9 238 204 815,01
Sirdaryo	0	0	0	0
Surxandaryo	0	0	0	0

Yuqoridagi jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, bozor konsentratsiyasi Toshkent shahri va viloyatida jamlangan bo'lib, jami bitimlarning 322 597 tasi yoki 78,3 foizi aynan shu hududga to'g'ri kelgan. Fikrimizcha, kapitalning bir hududda yoki bir instrument orqali markazlashuvi erkin bozorni shakllanishiga to'siq bo'ladi. Shuning uchun hududlarda fond bozorini rivojlantirish bo'yicha hukumat tomonidan chora-tadbirlar rejasi ishlab chiqib, unda hududlardagi korxonalarni fond bozori ishtirokchisiga aylantirish yuzasidan aniq vazifa va mud-datlarni belgilash kerak.



4-rasm: 2023-yil davomida yuridik va jismoniy shaxslarning Toshkent RFBdagi faoliyati tahlili

¹⁰ "Toshkent" RFB – 2023-yil bo'yicha Birjaviy tahlil.




Korxonalar duch kelayotgan muammolardan yana biri bu yirik hissadorlarning fond bozoriga raqobatchilar aksiyalarni sotib olib, nazorat paketini yo'qotish bilan bog'liq qarashdir. Ya'ni, o'z vaqtida davlat mulkini xus-usiylashtirish davrida kompaniyaning katta ulushlariga ega chiqqan aksiyadorlar, yoki korxona hissadorlari fond bozoriga aksiyalari chiqishini istamaydi yoki kompaniya fond bozoriga chiqqan taqdirda ham aksiyalarini sotmay, saqlab yuradi. Buning ortidan bozor likvidligi past va instrumentlarni tanlash imkoni cheklangan bo'ladi. Shuningdek, mazkur muammo bozorda chakana savdolarning ulushi kamligi uchun minoritar va majoritar investorlarni orasida tafovutni yiriklashtiraveradi (2.2-rasm).


Shundan kelib chiqib, mazkur toifadagi korxonalarga obligatsiyalar yoki imtiyozli aksiyalar chiqarish orqali bozorda o'z o'rniga ega bo'lish va kompaniya kapitalizatsiyasini yanada oshirish tavsiya etiladi.

Toshkent RFB da instrumentlar likvidlik darajasi boshqa rivojlanayotgan mamlakatlar, xususan, Qozog'iston fond bozorlaridagi instrumentlar likvidlik darajasi bilan solishtirilganda ancha past hisoblanadi. Bu avvalo fond bozorida market-meykerlarning faollik darajasi yuqori emasligi, savdo instrumentlarining bir xilligi va mamlakat iqtisodiyoti va siyosatidagi o'zgarishlarning instrumentlar savdosiga deyarli ta'sir o'tkazmasligi bilan bog'liqdir. Shuningdek, likvidlikning pastligi spekulativ bozorning sust rivojlangani bilan ham bevosita bog'liqdir. O'zbek fond bozorida likvidlikning past ekanligini UCI indeksi misolida ham ko'rib chiqsa bo'ladi (5-rasm). Ya'ni instrumentlarning qanchalik tez oldi-sotdi qilinishi bozorning umumiy indeksiga to'g'ridan-to'g'ri ta'sir qiladi va bu tebranish oxirgi 6 oy ichida 640-720 so'm oralig'ida harakatlanayotganini va o'zgarish 12 foizlar atrofida ekanligini anglashimiz mumkin. Taqqoslash uchun Qozog'istonning KASE indeksi olinib, unda shu oraliqdagi o'zgarish 25 foiz bo'lganligini ko'rish mumkin (4023-5061 tenge oralig'ida).

UCI indeksi ko'rsatkichi, so'm




KASE indeksi ko'rsatkichi, tenge



5-rasm: UCI va KASE indekslarining o'zgarish dinamikasi¹¹

Aholining moliyaviy savodxonlik darajasi bozorni shiddat bilan rivojlanmaslik sabablarining eng asosiylaridan biri hisoblanadi. Mamlakat aholisi ortiqcha kapitalni ko'chmas mulk, avtomobil yoki xorijiy valyutadagi naqd pul ko'rinishida saqlashni afzal bilishi nafaqat fond bozoriga, balki moliyaviy bozorning boshqa segmentlariga yetarli darajada kapital kirib kelmasligiga hamda turli xil iqtisodiy zanjirlarning uzilishiga olib keladi.

MOLIYAVIY SAVODXONLIK DARAJASI



6-rasm: MDH davlatlarida aholining moliyaviy savodxonlik darajasi, % da¹²

¹¹ https://uzse.uz/price_indices va https://kase.kz/en/stock_market/index_kase/ birja saytlaridan foydalangan holda muallif tomonidan tayyorlandi. Ma'lumotlar 2024-yil mart holatiga ko'ra


¹² Financial literacy levels in the Commonwealth of Independent States in 2021 © OECD 2021




O'zbekiston aholisining moliyaviy savodxonligini aniqlash yuzasidan xalqaro moliyaviy tashkilotlar tomonidan bir nechta tadqiqotlar o'tkazilgan bo'lib, ularning oxirgisi Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkilotining 2021-yilda o'tkazgan tadqiqoti hisoblanadi. Mazkur tadqiqotga ko'ra, O'zbekiston MDH davlatlari ichida aholining moliyaviy savodxonlik darajasi bo'yicha Belarus Respublikasidan keyingi 2 o'rinda bo'lib, so'rovnomaga jalb qilinganlarning 59,9 foizi moliyaviy bilimlarga ega deb baholangan (6-rasm). Biroq bu raqam faqatgina shahar va tuman markazlarida so'rovnomaga jalb qilingan yoshi katta aholining natijasidir. Bundan kelib chiqib induksiya tamoyili asosida O'zbekiston aholisining qariyb 60 foizi moliyaviy bilimlarga ega degan xulosaga kelish qaysidir ma'noda noto'g'ri bo'lishi mumkin. Aholining uchdan bir qismi yoshlar (0-18), qariyb 10 foizi qariyalarga (60 va undan yuqori) to'g'ri kelishini inobatga oladigan bo'lsak, yuqorida keltirgan 60 foizga yetmaydi degan farazimiz tasdiqlanadi.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan 2023-yilda o'tkazilgan so'rovnomaga asosan mamlakat aholisi o'z kapitalini ta'limga, uy-joy ta'miriga va davolanishga ishlatishi aniqlangan. Quyida mazkur tahlilni AQSh aholisi bilan o'tkazilgan so'rovnoma tahlili asosida solishtirdik (7-rasm).

Aholi xarajatlari, O'zbekiston



Aholi xarajatlari, AQSh




7-rasm: Aholi xarajatlari tahlili, O'zbekiston va AQSh davlatlari misolida, % da

Yuqorida keltirilgan 7-rasm ma'lumotlaridan kelib chiqib xulosa qiladigan bo'lsak, aholida iste'mol darajasi ularning kundalik turmushi va kelajakdagi ba'zi xaridlarni amalga oshirish bilan cheklanadi. Bu o'z navbatida ortiqcha pulni sarmoya sifatida moliyaviy bozorlarga yo'naltirish imkonini cheklaydi.

Demak, mamlakat aholisining pul bilan to'g'ri muomala qilmasligi qaysidir ma'noda moliyaviy bozorlarning barcha segmentlarida harakatni va likvidlikni pasaytiradi.


Bitimlar soni, dona

■ Aksiyalar bozori ■ Obligatsiyalar bozori



Bitimlar hajmi, mlrd so'm

■ Aksiyalar bozori ■ Obligatsiyalar bozori



8-rasm: Asosiy instrumentlar kesimida fond bozorida amalga oshirilgan bitimlar soni va hajmi¹³

13 "Toshkent" RFB – 2023-yil bo'yicha Birjaviy tahlil.



Fond bozorida taklif etilayotgan moliyaviy instrumentlarning asosiy turlari bu aksiyalar va obligatsiyalardir. Biroq 2023-yil yakunlari bo'yicha Toshkent RFB hisobotiga nazar soladigan bo'lsak, birja savdolarining 99 foizidan ortiq qismi faqat aksiyalar bozoriga to'g'ri keladi. Toshkent RFB da listingdan o'tgan kompaniyalar va ularning moliyaviy instrumentlari ham aksiyalar bozori juda katta tafovut bilan oldinda borayotgani, obligatsiyalar bozorida bor yog'i 7 ta emitent mavjudligini ko'rsatadi (8-rasm). Qolaversa, obligatsiyalar bozorida savdolarining takrorlanish holati aksiyalar bozoriga nisbatan ancha past hisoblanadi.

Aksiyalarning bu qadar markaziy moliyaviy instrument maqomini olishi bozorda tanlash imkoniyatini kamaytiradi, o'z-o'zidan qo'lida sarmoya uchun kapitali mavjud investorlarni e'tibordan chetda qoladi va qaytadan yuqoridagi muammolar o'zaro bog'liqlikda birin-ketin sodir bo'laveradi. Demak, quyida mazkur muammolarga yechim bo'lishi mumkin bo'lgan choralarni keltirib o'tamiz.

Muammo: Bozor konsentratsiyasi

O'zbekistonda yuzaga kelgan fond bozor konsentratsiyasi muammosini hal qilish uchun raqobat va diversifikatsiyani, korxona rahbarlarining fond bozori haqidagi tushunchalarni o'zgartirish muhim ahamiyatga ega. Buning uchun quyidagi choralarni puxta o'ylangan strategiya ishlab chiqish asosida amalga oshirish mumkin:

Yangi birjalarni rag'batlantirish: bozorni hududiy nuqtayi nazardan kengaytirish uchun boshqa viloyatlarda yangi fond birjalarini tashkil etishni rag'batlantirish va qo'llab-quvvatlash zarur. Bu raqobatni rag'batlantirish va bozor xilma-xilligini oshirish uchun soliq imtiyozlari, soddalashtirilgan tartibga solish jarayonlari, texnik ko'mak kabi choralarni o'z ichiga olishi mumkin.

PR marketingni kuchaytirish: fond bozori tomonidan listingdan o'tmagan kompaniyalarni bozorga PR marketing orqali jalb qilish choralarni ishlab chiqish zarur. O'zbekistonda 2024-yil 1-mart holatiga 612 ta aksiyadorlik jamiyati bo'lsa, shundan faqatgina 117 tasi listingdan o'tgan. Qolaversa, listingdan o'tgan kompaniyalar aksiyalarining deyarli 10 foizi yillar davomida savdo qilinmaydi. Sarmoyaga muhtoj bo'lgan kompaniyalar, ayniqsa sanoat kompaniyalari, bank kredit liniyalariga muqobil ravishda obligatsiyalarni chiqarishlari, buni ortidan ishlab chiqarishni kengaytirishlari va modernizatsiya qilish imkoniyati paydo bo'ladi. Biroq nafaqat aksiyadorlik jamiyatlari maqomida faoliyat yuritmayotgan sanoat korxonalari, balki "Korporativ aloqalar yoki Aksiyadorlar bilan ishlash" bo'limlari mavjud bo'lgan aksiyadorlik jamiyatlarida ham bu vazifalarni bajaradigan va yaxshi tushunadigan kadrlar tanqisligi mavjud. Shu sababli, LBMA va Toshkent RFB birgalikda respublikaning barcha hududlarida hududdagi korxonalar rahbarlari (hamda moliya ishlari bo'yicha mutaxassislar) uchun qisqa muddatli kurslarni tashkil etish orqali PR marketingni yo'lga qo'yishlari taklif etiladi.

Muammo: Yirik hissadorlar hukmdorligi

Qimmatli qog'ozlar bozorida hukmronlik qiluvchi yirik hissadorlar muammosini hal qilish uchun investorlarning xilma-xilligi va ishtirokini rag'batlantirish muhimdir. Buning uchun quyidagi choralarni amalga oshirish mumkin:

Institutsional investorlarning xilma-xilligini rag'batlantirish: pensiya jamg'armalari, investitsiya fondlari va investitsion kompaniyalar kabi institutsional investorlar o'rtasida xilma-xillikni rag'batlantirish zarur. Bozorda tijorat banklari, pensiya fondlari va investitsion kompaniyalarning ishtirokini oshirish orqali bozorga katta oqimda pul mablag'lari kirib keladi, instrumentlar likvidlik darajasi oshadi va bozorga nisbatan qiziqish ortadi. Yirik bozor ishtirokchilarida yig'ilgan instrumentlarni narxi tez o'zgarishi sababli bozorga minoritar aksiyadorlarning kirib kelishi ko'proq kuzatiladi. Qolaversa, bu kabi kompaniyalar o'z mijozlariga ham fond bozorida ishtirok etish imkoniyatlarini bilvosita ochib beradi.

Muammo: Likvidlikning pastligi

Qimmatli qog'ozlar bozorida past likvidlik muammosini hal qilish uchun quyidagi choralarni amalga oshirish mumkin:

Bozorni rag'batlantirish: likvidlikni yaxshilash uchun marketmeykerlarni rag'batlantirish zarur. Bu savdolarni osonlashtirish orqali marketmeykerlarni likvidlikni ta'minlashga undash uchun tranzaksiya xarajatlarini kamaytirish, chegirmalar yoki boshqa moliyaviy rag'batlarni taklif qilishni o'z ichiga olishi mumkin.

Savdo platformasini takomillashtirish: Savdo jarayonlarini soddalashtirish va tranzaksiya xarajatlarini kamaytirish uchun texnologik yechimlarni amalga oshirish zarur. Bunga ilg'or savdo platformalarini ishlab chiqish, buyurtmalarni moslashtirish algoritmlarini yaxshilash va hisob-kitob vaqtlarini qisqartirish kiradi.

Bozorni xabardor qilish kampaniyalari: investorlarni faol va likvid bozorlarda savdo qilishning afzalliklari haqida ma'lumot berish uchun xabardorlik kampaniyalarini o'tkazish zarur. Bu bozorda likvidlikning oshishiga olib keladigan qiziqish va ishtirokni shakllantirishga yordam beradi.

Muammo: Aholining moliyaviy savodxonligi

Aholining moliyaviy savodxonligi pastligi muammosini hal qilish uchun quyidagi choralar amalga oshirilishi mumkin:

Maktab o'quv dasturlarini integratsiyalash: Moliyaviy savodxonlik bo'yicha ta'limni erta yoshdan maktab o'quv dasturlariga kiritish. Bu shaxsiy moliya, investitsiyalar va asosiy iqtisodiy tushunchalar bilan bog'liq bilim va ko'nikmalar poydevorini yaratishga yordam beradi.



Jamoatchilikni xabardor qilish kompaniyalari: Moliyaviy savodxonlikni oshirish va keng aholini investitsiya imkoniyatlari, risklari va strategiyalari haqida xabardor qilish uchun jamoatchilikni xabardor qilish kompaniyalarini yanada takomillashtirish zarur. Buni televideniye, radio, ijtimoiy media va seminarlar kabi turli vositalar orqali amalga oshirish mumkin.

Moliyaviy institutlar bilan hamkorlik: qulay moliyaviy ta'lim dasturlarini ishlab chiqish va ta'minlash uchun banklar, investitsiya firmalari va boshqa moliya institutlari bilan hamkorlik qilish zarur. Bunga turli demografik guruhlariga moslashtirilgan seminarlar, vebinarlar, onlayn kurslar va axborot resurslari kirishi mumkin.

Muammo: Instrumentlarning cheklanganligi

Investitsion vositalarning cheklanganligi muammosini hal qilish uchun quyidagi choralar amalga oshirilishi mumkin:

Moliyaviy mahsulotlarni diversifikatsiya qilish: investorlarning ehtiyojlarini qondirish uchun kengroq investitsiya vositalarini ishlab chiqish va joriy etishni rag'batlantirish zarur. Bu birja fondlari (ETF), opsiyonlar va fyuchers shartnomalari kabi yangi moliyaviy mahsulotlarni yaratishni rag'batlantirishni o'z ichiga olishi mumkin.

Muqobil vositalar bo'yicha investorlarni o'qitish: investorlarni muqobil investitsiya vositalari bilan bog'liq foyda va risklar haqida o'rgatish zarur. Bu ma'lumot, resurslar va ushbu vositalarni qanday baholash va ulardan samarali foydalanish bo'yicha ko'rsatmalarni taqdim etishni o'z ichiga olishi mumkin.

Adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 18-apreldagi PF-5016-son "O'zbekiston Respublikasi Xususiy-
lashtirilgan korxonalarga ko'maklashish va raqobatni rivojlantirish davlat qo'mitasini tashkil etish to'g'risida"gi Farmoni
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 14-yanvardagi PF-5630-son "Davlat aktivlarini boshqarish, monopoli-
yaga qarshi kurashishni tartibga solish tizimini va kapital bozorini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 24-yanvardagi PQ-4127-son "O'zbekiston Respublikasi kapital bozo-
rini rivojlantirish agentligi faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi qarori
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 13-apreldagi PQ-5073-son "Kapital bozorini tartibga solish tizimini
yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori
5. Ludger Hentschel. "Investments: An Introduction". 2008
6. James D. Cox, Robert W. Hillman, Donald C. Langevoort, Ann M. Lipton. "Securities Regulation: Cases and Materials".
The Business Lawyer, 2021. Tenth Edition
7. Brealey, R., Myers, S., & Allen, F. (2017). Principles of Corporate Finance. McGraw-Hill Education.
8. Ross, S., Westerfield, R., & Jordan, B. (2016). Fundamentals of Corporate Finance. McGraw-Hill Education.
9. Damodaran, A. (2012). Investment Valuation: Tools and Techniques for Determining the Value of Any Asset. Wiley.
10. Brigham, E., & Ehrhardt, M. (2016). Financial Management: Theory & Practice. Cengage Learning.
11. DeMarzo, P., & Berk, J. (2013). Corporate Finance. Pearson.

Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>

Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Xondamir Ismoilov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2024. № 4

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77)

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77) telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnalning ilmiyligi:

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro'yxatdan o'tkazilgan.